



MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASINI OZIQ-OVQAT TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI TUTGAN O'RNI

Olimjonova Gavkharoy

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalaaar
instituti "Iqtisodiyot" kafedrası assistenti

ogavxaroy87@gmail.com

Mo'minova Feruza

"Ipakchilik va tutchilik" fakulteti "Zooinjeneriya
(Asalarichilik)" ta'lim yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Received: 17th October 2023

Accepted: 18th October 2023

Online: 19th October 2023

KALIT SO'ZLAR:

*Integratsiya, globallashuv,
havf-xatar, agroklastlar,
innovatsiya, texnologiya,
infratuzilma.*

ANNOTATSIYA:

*Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarini
globallashuvi va chuqurlashuvi agrar biznesni
ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, uning
bozordagi tashqi imkoniyatlari va havf-
xatarlarini ham har tomonlama chuqur
o'rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu
imkoniyatlardan biri agrosanoat guruhini
klaster modeli bo'vicha tashkil etishdir.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek "O'zbekistonda mevazorlar, ayniqsa, intensiv usuldagi bog'lar yetarlicha tashkil etilmayotgani, bog' va tokzorlar yaroqsiz holatga kelib qolgani sababli ularning iqtisodiy samaradorligi o'ta past darajada bo'lib, qator tumanlarda minglab gektar eski bog'lar yillar davomida hosil bermayapti. Hanuzgacha "mahsulot yetishtirish – xarid qilish – saqlash va qayta ishlash – eksport" zanjirini tashkil etadigan kooperatsiya tizimi joriy qilinmagan"ni bugungi kundagi eng asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblandi. Vaholanki, mustaqillik yillarida bog'dorchilikka rivojlantirish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar natijasida sabzavot, poliz ekinlari, meva va uzumzorlar maydonlari yanada kengayib bormoqda. Ayni paytda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida meva sabzavotchilik korxonalarini takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda Respublika hukumati tomonidan meva-sabzavotchilik mahsulotlariga bo'lgan iste'mol bozori talabini to'la qondirish, shu bilan birga eksport hajmini ko'paytirish, sohani modernizatsiya qilishdek ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni hal etish fermer xo'jaliklari tomonidan meva-sabzavotchilik va

uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va ularni sotish jarayonlarini samarali tashkil etish, hisobga olish va ular faoliyatini statistik jihatdan tahlil qilish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida 2019 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda keltirilgan vazifalar bugungi kunda qishloq xo'jaligida meva va sabzavot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish asosida ularda boshqaruvning eng zamonaviy usullarini qo'llash, yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini xalqaro talablarga moslashtirish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

O'zbekistonning agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqobat muhitini shakllantirish orqali ularni raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot yetishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yurituvchi mexanizmlarni keng ko'lamda joriy qilinishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalarining tahlillari ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi va klasterlarini rivojlantirish zarurati borligini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

iqtisodiy masalada – meva-sabzavotchilik jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini (*mamlakat yalpi ichki*

mahsulotining 8,7 foizi) tashkil etgani holda qishloq joylarida aholining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning qator tarmoqlarini rivojlanishiga o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq mamlakat qishloq xo'jaligi eksportida asosiy o'rinlarni egallaydi;

ijtimoiy masalada – meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish samaradorligi, nafaqat qishloq aholisining turmush darajasiga, balki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yakuniy natijada ushbu islohotlardan pirovard maqsad mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanib, yangi O'zbekiston rivojlanishining barcha jarayonlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi hamda aholi turmush darajasining oshib borishini o'zida aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud".

Shuningdek, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash hamda eksport qilishda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilyapti, deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda, xolos. Ayniqsa, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkichlar hamon pastligicha qolmoqda. Joriy yilda 860 ming tonna yoki 620 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilingani bizning imkoniyat va salohiyatimizga mosmi? Yo'q, albatta! Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bog'lar va tokzorlarga ishlov beradigan, sabzavot va kartoshka urug'larini ekadigan va yig'ishtirib oladigan texnikalar mavjud emas. Fermer, dehqon xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, urug'lik yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlari talab darajasida tashkil etilmagan".

Bu - yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui, aholi turli qatlamlarini o'zida jamlovchi bog'lam, ayni paytda sohada innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hamdir. Chunki klaster sharofati

bilan xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o'tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Sodda qilib aytganda, klaster tizimi mohiyatdan bir majmua doirasida bir jamoa bo'lib meva-sabzavotchilikmi yetishtirish, qayta ishlash, saqlashgacha bo'lgan barcha faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi. Ayni vaqtda klaster yo'nalishi iqtisodiyotning barcha tarmog'i uchun istiqbolli ekanligini namoyon etmoqda.

Mazkur jarayonlarda hamma ishchilarning manfaatlari uyg'unlashadi. Ya'ni, xom ashyo yetishtiruvchidan tortib, uni qayta ishlovchilargacha bo'lgan barcha ishchi-xodim mahsulot sifatiga birdek javobgar bo'ladi. Chunki shunga yarasha oxirgi tovarni sotishdan paydo bo'ladigan qo'shimcha qiymatning bir qismi shu ishga bosh qo'shgan mehnatkashlarga taqsimlandi. Bunday rag'bat ularni nomigagina emas, balki sidqidildan mehnat qilishga undaydi. Klaster faqat iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan emas, aksincha, ijtimoiy ahamiyati kattaligi jihatidan ham ajralib turadi.

Xulosa.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish klaster tizimi bilan bog'lanmoqda. Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda, u tez orada agrar sohaning lokomotiviga aylanadi. Binobarin, qishloq xo'jaligi, ayniqsa, meva-sabzavotchilik tarmog'i qanchalik takomillashtirsa, davlatning ekport salohiyati shunchalik ortadi, xalqning turmush farovonligi yuksaladi.

Bu - yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui, aholi turli qatlamlarini o'zida jamlovchi bog'lam, ayni paytda sohada innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hamdir. Chunki klaster sharofati bilan xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o'tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Sodda qilib aytganda, klaster tizimi mohiyatdan bir majmua doirasida bir jamoa bo'lib meva-sabzavotchilikmi yetishtirish, qayta ishlash, saqlashgacha bo'lgan barcha faoliyatni o'z ichiga qamrab oladi. Ayni vaqtda klaster yo'nalishi iqtisodiyotning barcha tarmog'i uchun istiqbolli ekanligini namoyon etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.

2.O'zbekiston Respublikasining «Kooperatsiya to'g'risida»gi Qonuni. – T.: - Xalk so'zi, 1991.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi «Meva-

sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-3709-son Farmoni. - T.: 2006 y.

4. "2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.03.2019, ID-2722.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

1. Kulikov I.M., Vorobev V.F., Xromenko V.V. i drugie. Osnovnye napravleniya innovatsionnogo razvitiya sadovodstva i pitomnikovodstva v Rossii: -Moskva: FGBNU "Rosinformagrotex", 2017.-132s. <http://agroportal24.ru/plodovodstvo/1672-osnovnye-tipy-sadov-chast-2.html>.

2. Lesnikova G. Sady intensivnogo tipa s tochki zreniya ekonomiki. - «Agrarnaya Kuban» 06 dekabr 2012 g. <https://agrosputnik.ru/index.php/rastenivodstvo/661-sady-intensivnogo-tipa>.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

1. O'zbekiston qishloq xo'jaligi statistik to'plami. -T. - 2020 yil, 64-65 betlar.

2. Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari.

3. "Intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish".Maqola/ Olimjonova G. M. 2023y.6 b.

4. G.M.Olimjonova & Juraboyev M. (2023). Agriculture development in our country. International Conference On Higher Education Teaching,1(3), 26-30. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/de/article/view/490>

5. "Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences".G.M.Olimjonova.Maqola.2022y.8 b.www.interonconf.org

6. "Fermer xo'jaligida meva yetishtirish bo'yicha xorij tajribalarining ahamiyati".G.M.Olimjonova.Maqola.2022y.8 b. www.miastoprzyzlosci.com.